

**SUN'YIY INTELLEKTNING KUNDALIK HAYOTDAGI QO'LLANILISHI**

**Hakimjonova Mohimbegim Mansurjon qizi**  
**hakimjonovamohimbegim@gmail.com**

*Farg'onan davlat universiteti  
 Chet tillari fakulteti 1-kurs talabasi*

*Ilmiy raxbar: Mirzaakbarov Dilshodbek Dovlatboevich*  
*Farg'onan davlat universiteti axborot texnologiyalari kafedrasi*  
*katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola sun'iy intellektning kundalik hayotdagi qo'llanilishi va uning turli sohalarda ishlatalishiga oid keng qamrovli tahlilni taqdim etadi. Sun'iy intellekt (SI) bu o'z atrof-muhitini idrok etish, o'rganish va tahlil qilish orqali maqsadlarga erishish uchun harakat qiladigan tizimlar bo'lib, u inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar, jumladan, tilni tushunish, tarjima qilish, masalalarini hal qilish va boshqalarni amalga oshiradi. Maqlada SI turlari va ulardan foydalanish masalan, ChatGPT, Gemini, Midjourney kabi mashhur texnologiyalar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda qabul qilingan qaror asosida sun'iy intellekt texnologiyalarini kengaytirish, shu jumladan, qishloq xo'jaligi va bank sohalaridagi qo'llanilishini rivojlantirishga oid reja va vazifalar ham keltirilgan. Maqola SI texnologiyalarining amaliy ahamiyatini, uning rivojlanish tarixini va kelajakka bo'lgan ta'sirini ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, internet, dasturlar, ChatGPT, Gemini, Midjourney, ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter tizimlari.

**Аннотация:** В этой статье представлен исчерпывающий анализ применения искусственного интеллекта в повседневной жизни и его использования в различных областях. Искусственный интеллект (ИИ)-это системы, которые действуют для достижения целей посредством восприятия, изучения и анализа окружающей среды, реализуя возможности, связанные с человеческим разумом, включая понимание языка, перевод, решение проблем и многое другое. В статье подробно рассматриваются такие популярные технологии, как, например, chatgpt, Gemini, midjourney. Также на основании принятого в 2021 году решения в Республике Узбекистан представлены планы и задачи по расширению применения технологий искусственного интеллекта, в том числе в сельском хозяйстве и банковской сфере. В статье показано практическое значение технологии Си, история ее развития и влияние на будущее.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, интернет, приложения, chatgpt, Gemini, Midjourney, социальные сети, компьютерные системы.

**Annotation:** This article provides a comprehensive analysis of the application of artificial intelligence in everyday life and its use in various fields. Artificial intelligence (SI) are systems that act to achieve goals through the perception, study and analysis of their environment, carrying out opportunities related to human consciousness, including language comprehension, translation, issue resolution, among others. The article details the types of SI and their use in popular technologies such as ChatGPT, Gemini, Midjourney. Plans and tasks related to the expansion of artificial intelligence technologies, including the development of their application in the agricultural and banking sectors, are also presented in the Republic of Uzbekistan based on the resolution adopted in 2021. The article shows the practical importance of SI technologies, the history of its development and its impact on the future.

**Keywords:** artificial intelligence, internet, applications, ChatGPT, Gemini, Midjourney, social networks, computer systems.

Bugungi kunga kelib sun’iy intellekt tushunchasi juda keng qamrovli tushunchaga aylanib bormoqda. Masalan, mobil qurilmangizdagi dasturlar: Google, lug‘atlar, turli xil o‘yinlar va hokazolar ham sun’iy intellektga yaqqol misol bo‘la oladi. Zamonaviy sun’iy intellekt bu o‘z atrof-muhitini idrok eta oladigan va o‘z maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun harakat qila oladigan, ma’lumotlarni o‘rganadigan va tahlil qiladigan tizimdir.

Sun’iy intellekt informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda, inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug’ullanadi.

Hozirda sun’iy intellekt turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi.

Alan Turing sun’iy intellekt sohasida olib borilgan ilk tadqiqot muallifi bo‘lgan. Sun’iy intellektga 1956-yili mustaqil fan sohasi sifatida asos solingan. Shu yilning yozida Dartmouth kollejida o‘tgan anjumanda John McCarthy “sun’iy intellect” atamasini birinchi marta ishlatgan va tarixga mazkur atama muallifi bo‘lib kirgan. Sun’iy intellekt bo‘yicha tadqiqotlar XX asr o‘rtalaridan beri qilinib kelinsa-da, unga nisbatan ommaviy qiziqish 2012-yilda chuqr o‘rganuv boshqa sun’iy intellekt metodlaridan ustunligini namoyon etganda hamda 2017-yilda transformer arxitekturasida erishilgan yutuqlar ortidan keskin ortgan. 2020-yillar boshlarida mazkur soha jadal rivojlanib, ko‘plab shirkatlar, universitetlar va laboratoriylar sun’iy intellekt sohasida sezilarli yutuqlarga erishib kelishmoqda.

Hozirgi kunda sun’iy intellektning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, quyida ba’zilari haqida ma’lumot berilgan:

ChatGPT – OpenAI tomonidan yaratilgan yuqori qobiliyatli, foydalanuvchi so‘rovlariiga javob berish uchun katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishga mo‘ljallangan sun’iy intellekt dasturi. ChatGPT inson tilini og‘zaki va yozma ravishda tushuna oladi. ChatGPT matnlar bilan ishlaydi, ya’ni unga kiritiladigan so‘rovlarni matn shaklida qabul qiladi va javob qaytaradi. U OpenAI vositasi bo‘lgani uchun ChatGPT rasm generatsiya qiluvchi DALL-E hamda video generatsiya qiluvchi Sora kabi boshqa sun’iy intellektlar bilan muammosiz birlashadi. ChatGPT bepul yoki pulli ta’rifdan foydalanayotganingizga qarab GPT-3.5 yoki GPT-4da ishlaydi.

Ilgari Bard nomi bilan tanilgan Gemini Google kompaniyasi tomonidan chiqarilgan sun’iy intellekt hisoblanadi. U Gemini 1.0 da ishlaydi, Google kompaniyasining yirik tilli model texnologiyasidagi so‘nggi ishlanmasi. Ushbu vositani ajratib turadigan narsa shundaki, barcha foydalanuvchilar Geminidan real vaqtida internet va qidiruv ulanishidan, shuningdek, Xaritalar va YouTube kabi mashhur Google vositalari uchun asosiy kengaytmalardan foydalanishlari mumkin. Pulli rejalar va biznes foydalanuvchilari qo‘srimcha imkoniyatlardan, jumladan, Google Workspace uchun foydalanishlari mumkin. Geminida so‘rovni tahrirlab, takomillashtirish va faktlarni tekshirish uchun Google Qidiruv tugmasidan foydalanish xususiyatlari ham mavjud.

Midjourney matnli ko‘rsatmalarini tasvirga aylantira oladigan sun’iy intellekt turlaridan biridir. Midjourney yordamida siz oddiy matnga asoslangan ta’riflardan yuqori sifatli tasvirlar yaratishingiz mumkin. Midjourneydan foydalanish uchun sizga hech qanday maxsus apparat yoki dasturiy ta’minot kerak emas, chunki u butunlay Discord chat ilovasi orqali ishlaydi. Faqat tasvirlarni yaratishni boshlashdan oldin siz oylik to‘lov qilishingiz kerak bo‘ldi. Midjourney oddiy matn tavsifidan ajoyib va ishonarli ko‘rinishdagi tasvirlarni yaratishi mumkin. Tasvirlarni yaratish uchun foydalanuvchilar hozirda sun’iy intellekt yordamida tasvir yaratuvchi boshqa vositalar bilan bir xil buyruqlardan foydalanadilar. Bu asosan /imagine buyrug‘i bo‘lib, unga bot rasm bilan javob beradi.

Sun’iy intellektga to‘g‘ri prompt (buyruq) kiritish:

ChatGPT kabi texnologiyalarning tez paydo bo‘lishi bilan samarali sun’iy intellekt promptlarini yozishni o‘zlashtirish zarurati paydo bo‘ldi. Ya’ni bu yangi prompt injenering yo‘nalishi kelib chiqishiga ham turtki bo‘ldi. Prompt foydalanuvchilar sun’iy intellektga o‘z xohishlarini bildirish uchun kiritadigan buyrug‘i hisoblanadi.

Sun’iy intellekt ishimizni yengillashtirishda yaxshigina dastyor bo‘la oladi. Lekin undan natija olish uchun to‘g‘ri buyruq berish muhim. Quyidagi bunga bir necha foydali tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

1. *ChatGPTga rol bering:*

Namuna: a) Sen 5 yillik tajribaga ega marketologsan. Menga ...

b) Senior darajadagi dasturchi sifatida javob ber...

*2. So 'rovda ma'lumotlarni bat afsil yozing:*

Namuna: Bizning markaz 2018-yildan beri dasturlash, dizayn, marketing yo'naliishlarida ta'lim berib keladi. Toshkent, Farg'on'a va Samarqandda filiallarimiz mavjud hamda 3000 ga yaqin o'quvchilarimiz bor...

*3. Aniq savol bering:*

Namuna: Kompaniya ijtimoiy tarmoqlariga dasturlash, dizayn, marketing yo'naliishlarida qiziqtiruvchi, interaktiv va ma'lumot beruvchi postlar uchun kontent rejasini tuzib ber.

*4. Kutilgan natija uchun qayta savol bering:*

Namuna: Ushbu kontent reja asosida har bir post uchun ssenariy yozib ber. Kontentlar video va karusel post ko'rinishida bo'lsin.

*5. Ma'lumotni qanday formatda qabul qilishni ayting:*

Namuna: Kontent rejani jadval ko'rinishida tayyorlab ber.

*4. Misollardan foydalaning:*

So'rovingizga oid misollarni qo'shish sun'iy intellektga so'rovingizni yaxshiroq tushunish imkonini beradi hamda sizning taxminlaringiz va kutganingizga mos natijani chiqarib berishi osonlashadi.

2021-yilning 17-fevral kuni "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi.

Mazkur Qarordan ko'zlangan maqsad "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasiga muvofiq sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdir.

Shuningdek, ushbu hujjat sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'naliishlari va tamoyillarini hamda yaqin va uzoq istiqbolda ushbu sohani kompleks shakllantirish uchun shart-sharoitlarni belgilovchi sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda yagona talablar, javobgarlik, xavfsizlik va shaffoflikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish, aholi manfaatlari yo'lida davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilashni nazarda tutadi. O'z navbatida, ma'lumotlarni qayta ishlashda davlat organlarining samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish, foydali texnologik yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va ularni keyinchalik tijoratlashtirishni rag'batlantiruvchi sun'iy intellekt sohasida innovatsion ishlanmalarining mahalliy ekotizimini yaratish kabi maqsad-vazifalar amalga oshiriladi.

Qarorda sun'iy intellekt texnologiyalarining qaysi sohalarda qay tarzda qo'llanilishi, bu borada ko'zda tutilgan vazifalar ham to'liq o'z aksini topgan.

Masalan, qishloq xo'jaligi sohasida yerni masofadan zondlash ma'lumotlari asosida tuproq va qishloq xo'jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo'jaligi texnikasi, shu jumladan, kombaynlar ishini monitoring qilish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash ko'zda tutilgan.

Bank sohasida esa tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini soddalashtirish, shuningdek, bank xizmatlari ko'rsatish sifatini tahlil qilish, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash vazifasi belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda turli xil sohalarda keng qo'llanilmoqda va ularning roli kundan kunga oshib bormoqda. Mobil ilovalar, onlayn xizmatlar, o'yinlar, va boshqa ko'plab sohalarda SI tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaygan. Alan Turing tomonidan asos solingan va 1956-yilda mustaqil fan sifatida tanilgan sun'iy intellekt, 2012-yildan boshlab chuqur o'r ganish usullarining rivojlanishi bilan yangi yuksakliklarga erishgan. Hozirgi kunda sun'iy intellektning turli turlari, masalan, ChatGPT, Gemini va Midjourney kabi tizimlar foydalanuvchilar uchun turli xizmatlarni taqdim etmoqda. O'zbekistonda esa "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida SI texnologiyalarini keng joriy etish va ularni amaliyatda qo'llash bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda. Bu esa mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. SI texnologiyalarining rivoji va ularning amaliy qo'llanilishi kelajakda yana ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, turli tarmoqlarda samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/qiziqarli-faktlar/suniy-intellekt/>
2. <https://strategy.uz/index.php?news=1238&lang=uz>
3. [https://najottalim.uz/blog/suniy-intellekt-turlari-va-ulardan-foydalanish?srsltid=AfmBOoot6pu2-Mb-OU5aMleoKnPoC0OrUJGq\\_Ptbhe9708QF6pJYegV7](https://najottalim.uz/blog/suniy-intellekt-turlari-va-ulardan-foydalanish?srsltid=AfmBOoot6pu2-Mb-OU5aMleoKnPoC0OrUJGq_Ptbhe9708QF6pJYegV7)
4. <https://oqila.uz/suniy-intellekt>